

“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDAGI SO‘Z BIRIKMASI VA GAP KO‘RINISHIDAGI AYRIM FRAZEMALAR TAHLILI

Abdullayeva Dinora Raimjon qizi,

Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

E-mail: abdullayevadinora977@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologizmlarning tasnifi, ma’no turlari, semantik hamda grammatik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Iboralarning so‘z birikmasi yoki gap shaklida qo‘llanishi, gap tarkibida ma’lum so‘z turkumi vazifasini bajarishi, sintaktik jihatdan bitta bo‘lak vazifasida namoyon bo‘lishi yoritiladi. O‘zbek tilidagi iboralar tuzilishiga ko‘ra komponentlarga ajratilib o‘rganiladi. Tahlil jarayonida “Ikki eshik orasi” romanida uchraydigan iboralar asos qilib olinadi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, frazeologiya, sinonim iboralar, antonim iboralar, omonim iboralar, komponentlar, pishmaydigan savdo, itday dumini qisib qoldi.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются классификация, типы значений, а также семантические и грамматические особенности фразеологизмов. Рассматривается употребление фразеологизмов в форме словосочетания или предложения, их функционирование в составе предложения в роли определённой части речи, а также проявление в качестве одного синтаксического члена. Узбекские фразеологизмы изучаются и классифицируются по структурным компонентам.

Ключевые слова: фразеологизм, фразеология, синонимичные фразеологизмы, антонимичные фразеологизмы, омонимичные фразеологизмы, компоненты, “pishmaydigan savdo”, “itday dumini qisib qoldi”.

Abstract. This article analyzes the classification, types of meaning, and semantic and grammatical features of phraseological units from a scientific perspective. The use of idioms in the form of word combinations or sentences, their function as specific parts of speech within a sentence, and their manifestation as a single syntactic unit are examined. Uzbek idioms are studied and classified into components according to their structural features. The analysis is based on idioms found in the novel “Between Two Doors”.

Keywords: phraseological unit, phraseology, synonymous idioms, antonymous idioms, homonymous idioms, components, “pishmaydigan savdo”, “itday dumini qisib qoldi”.

Kirish. Frazeologizmlar tarkibi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat, nutqda tayyor holda qo‘llanadigan, ma’nosi ko‘chma barqaror til birliklar hisoblanadi. Ular erkin so‘z birikmalaridan farqli ravishda, butun holda bitta ma’noni bildiradi. Tilshunoslikda ularni o‘rganish frazeologiya sohasi doirasida amalga oshiriladi. Ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi – juda xursand bo‘ldi, bosh qotirmoq – qattiq o‘ylamoq, tish-tirnog‘i bilan – bor kuchi bilan.

So‘zning shakliiy tomoni tovushdan iborat bo‘lsa, iboraning shakliiy tomonini so‘z tashkil etadi: rahmdil (r+a+h+m+d+i+l) – ko‘ngli bo‘sh (ko‘ngli+bo‘sh). Iboraning qismlari qat’iy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so‘zma so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Ibora so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida bo‘ladi: 1. So‘z birikmasi shaklidagi ibora: anqoning urug‘i, bosh ko‘tarmoq. 2. Gap shaklidagi ibora: ko‘zi ochildi, dami kesildi, tili tutildi [2.9].

Adabiyotlar tahlili. Professor Sh. Raxmatullayev iboralarni ma'no turlari jihatidan a) nomlovchi iboralar va b) ifodalovchi iboralarga ajratib tasnif qiladi. Shulardan nomlovchi iboralar deyilganda olim predmetga xos belgining nomi (do'ppining tagidek), harakat holatning nomi (og'iz ko'pirtirmoq), harakatga xos bo'lgan belgining nomi (eshikdan kelmay teshikdan)ni bildiruvchi iboralarni tushunadi [4.112].

Frazeologik birliklarning til ijtimoiy funksiyalarida tutgan o'rni, shakllanishi, komponent tarkibi, semantik xususiyatlari qiyosiy va chog'ishtirma aspektda, sinxron aspektda atroflicha tadqiq qilingan. Frazeologik ma'no shakllanishining kognitiv asoslari konseptual asosda o'rganilgan. Ammo tarixiy manbalardagi frazeologik birliklar semantik va grammatik xususiyatlari, keyingi davr tiliga munosabati, frazeologik birliklar taraqqiyotidagi struktur-semantik o'zgarishlar masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar kam miqdorni tashkil qiladi [3.143]. Shu sababli, hozirgi kunda o'zbek iboralarni struktur-semantik jihatdan o'rganish va tahlil qilish dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda frazeologik birliklarni aniqlash, tasniflash va tahlil qilishda struktur-semantik hamda funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbasi sifatida O'tkir Hoshimovning Ikki eshik orasi romani asos qilib olinib, undagi frazemalar komponent tarkibi, grammatik qurilishi va uslubiy xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratildi. Shuningdek, frazeologizmlarning gap tarkibidagi sintaktik vazifasi qiyosiy-tavsifiy metod asosida ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Iboralar ham so'zlar kabi omonim, sinonim va antonimlik xususiyatiga ega hisoblanadi.

Ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan iboralar sinonim iboralar deyiladi. Ular nutqning ta'sirchanligini oshiradi va takroni kamaytiradi. *Og'zi qulog'ida, ko'ngli tog'day ko'tarildi, boshi osmonga yetdi iboralari "Juda xursand bo'lish" ma'nosini bildiradi.*

Ma'nosi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan iboralar antonim iboralar hisoblanadi. *Og'zi qulog'ida – ko'ngli cho'kdi, ko'ksini kerib chiqmoq – itday dumini qisib qolmoq.*

Shakli bir xil, lekin ma'nosi turli bo'lgan iboralar omonim iboralar deyiladi. *Ko'z yumdi – vafot etdi; ko'z yumdi – e'tibor bermadi. Bosh ko'tarmoq – qarshi chiqmoq, bosh ko'tarmoq – sog'aymoq*

Frazema so'z birikmasi, gap strukturasi ega bo'lishiga qaramasdan, lug'aviy birlik hisoblanadi va shu jihatdan so'z bilan bir qatorga qo'yiladi. Masalan: *do'ppisini osmonga otmoq* iborasi "xursand bo'lmoq", *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* iborasi "hafa", *bir qultum suv bilan yutib yuborguday* iborasi "go'zal" ma'nolarini ifodalaydi. Iboralarda ikki yoki undan ortiq so'z o'z ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda, bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi. Shu bois frazemalar birikma sifatida ajratilmaydi. Bitta so'roqqa javob bo'ladi va bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi. Frazemalar komponentini tashkil qiluvchi leksemalar bir lug'aviy ma'no ifodalashga xizmat qiladi [5.135].

Frazeologizmlar tilning ma'no va ifoda boyligini oshiruvchi muhim birliklardir.

Frazeologizmlar nafaqat leksik, balki grammatik ma'noga ham ega. Ular gapda ma'lum bir so'z turkumi vazifasini bajaradi va sintaktik jihatdan bitta bo'lak sifatida ishtirok etadi.

Frazeologik birliklar gapda ot, sifat, fe'l yoki ravish vazifasini bajarishi mumkin: bosh qotirmoq – fe'l (o'ylamoq), og'zi qulog'ida – sifat (juda xursand).

Frazeologizmlar tarkiban bir nechta so'zdan iborat bo'lsa ham, gapda bitta bo'lak hisoblanadi:

U bu masala ustida bosh qotirdi. Bu yerda "bosh qotirdi" – kesim.

Frazeologizmlar zamon, shaxs-son, egalik kabi grammatik qo'shimchalarni qabul qilishi mumkin: bosh qotirdi (o'tgan zamon), bosh qotiryapti (hozirgi zamon), ko'nglim bo'm-bo'sh (egalik).

Frazeologizmlar grammatik jihatdan erkin so'zlar kabi shakllansa-da, ma'no jihatdan yaxlit va barqaror birlik hisoblanadi.

Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z komponentidan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z komponent ko'pincha ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: ko'nglim yorishdi, ko'ngling yorishdi, ko'ngli yorishdi kabi. Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi. Bunda ikki holat mavjud: 1. Tuslovchi bilan egalik affiksi shaxs-sonda muvofiqlashib boradi: ko'nglimni uzdim, ko'nglingni uz kabi. Bunda ayni shaxs-son ifodasi ikki marta ifodalanadi. 2. Tuslovchi bilan egalik affiksi boshqa-boshqa shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi, shunga ko'ra har biri mustaqil o'zgaradi: ko'nglini topdim, ko'nglingni topsin kabi [4.110–111].

O'zbek tilida iboralar tuzilish jihatidan ikki va undan ortiq komponentli hisoblanadi. Maqolada biz "Ikki eshik orasi" romanidagi iboralarni komponentlarga bo'lib tahlil qilamiz:

1. Ikki komponentli frazemalar:

a) *Ot + fe'l komponentli fe'l frazemalar:*

QOVOG'INI SOLMOQ – xafa bo'lmoq, jahli chiqmoq yoki ranjiganini yuz ifodasi bilan ko'rsatmoq.

Tabib buva muloyim tovushda yigitga tayinladi. – Ukangizni uylariga oborib qo'ying, Olimjon... Bundan chiqdi "Alvasti" ko'prikda Husan buvam bilan Oqsoqol buvaga yordam bergan Olimjon aka shu ekan-da! So'ragim keldi-yu, dadam qovog'ini solib turganini ko'rib indamay qo'ya qoldim.

Qovog'ini solmoq – gap shaklidagi ibora.

GO'LLIKKA SOLMOQ – o'zini bilmaganga olish, tushunmagandek yoki bexabar ko'rinishga urinish.

–Anuv kuni oyim nima degani esingdami? O‘zimni go‘llikka soldim:–Nima dedilar?
(82-bet)

Go‘llikka solmoq – gap shaklidagi ibora.

b) *Ot + ot komponentli ot frazema:*

ANQONING URUG‘I – juda kam uchraydigan, noyob yoki topilishi qiyin narsa (yoki odam).

Oyim norozi bo‘lib chirqillaydi: –Lampamoy anqoning urug‘i bo‘lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz. Ammo ziqna bobom lampamoyini ayamaydi. (50-bet)

Anqoning urug‘i - so‘z birikmasi shaklidagi ibora.

c) *Fe‘l + ot komponentli ot frazema:*

PISHMAYDIGAN SAVDO – amalga oshmaydigan, natija bermaydigan, oxirigacha yetmaydigan ish yoki kelishuv degani.

–Tog‘ang balo ekan, Kimsan. Kelin bo‘lmish Ra‘noxon ikki jahonning biri! Uch marta sovchi bo‘lib bordim-u, baribir pishmaydigan savdo deb o‘ylagandim. Shundoq qiz Shomurodga tegishiga aqlim yetmovdi. Yo‘q, tekstilda birga ishlab, yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelgan ekan. (78-bet)

Pishmaydigan savdo – so‘z birikmasi shaklidagi ibora.

2. Uch komponentli frazemalar:

a) *Ot + ot + fe‘l komponentli fe‘l frazemalar:*

ETNI TIRNOQDAN AJRATMOQ – juda yaqin, ajralmas, bir-biriga bog‘liq narsalarni ajratmoq qiyin bo‘lgan holatni bildiradi. Ko‘pincha insonlar, do‘stlar yoki yaqin narsalarni tavsiflashda ishlatiladi.

Ra‘noxon bo‘lsa hech kim bilan ishi yo‘q. Eridan ajralgisi kelmaydi. Etni tirnoqdan ajratmay to‘ng‘iz qo‘pgur, girmon bo‘lmasa, shu azoblar yo‘q edi. (135- bet).

Etni tirnoqdan ajratmoq - gap shaklidagi ibora.

BOSH-QOSH BO‘LMOQ – biror ish bilan band bo‘lish, biror ishni amalga oshirish yoki kimnidir yoqlash, yordam berish ma‘nosini bildiradi.

Indamay turishimdan hammasini tushundi. – Dezorganizatorlikka o‘zlari bosh-qosh bo‘ptilar shekilli, o‘rtoq Shomurodov? - dedi labi burilib. – Brigadirlik yuki og‘irlik qilib qoldimi? Yana indamadim. (7-bet)

Bosh-qosh bo‘lmoq - gap shaklidagi ibora.

b) *Ot + fe‘l + fe‘l komponentli fe‘l frazemalar:*

RANGI GEZARIB KETDI – jahli chiqmoq, g‘azablanmoq, ba‘zi hollarda esa kuchli hayajon, uyat va aybdorlikni aks ettiradi.

Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi. – O‘h-ho‘! Ja osmondasiz-ku yigit!...
Gap bunday: uch kunda to‘rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz. (7- bet)

Rangi gezarib ketdi – gap shaklidagi ibora.

KAPALAGI UCHIB KETDI – odam qattiq qo‘rqib ketganini bildiradi.

Odamlar yomon-da! Darrov gap qiladi. “Kap-katta aka-singil qo‘l ushlab yuribdi”, deydi. “Aka-singil?” Bir hafta avval Kimsan akam Ochil akaga nima dedi? O‘ziyam kapalagi uchib ketdi Ochil sho‘rlilikning! Kimsan akam ajab qildi! Ikkinchi yo‘limni to‘smaydigan bo‘ldi. (80-bet)

Kapalagi uchib ketdi - gap shaklidagi ibora.

3. To‘rt komponentli frazemalar:

a) *Ot + ot + ravish + fe‘l komponentli fe‘l frazema.*

YULDUZI YULDUZIGA TO‘G‘RI KELMOQ – qiz va yigitning bir-biriga mos bo‘lishi.

Shundoq qiz Shomurodga tegishiga aqlim yetmovdi. Yo‘q, tekstilda birga ishlab, yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelgan ekan. (78-bet)

Yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelmoq – gap shaklidagi ibora.

b) *Ot + son + fe‘l + fe‘l komponentli fe‘l frazema.*

KO‘NGLIM BIR QALQIB KETDI – odamning ichida birdan kuchli hissiyot paydo bo‘lganini bildiradi.

Soqoli qirtishlab olingan, egnida oq jujun ko‘ylak, oyog‘ida xirom etik. Ko‘zlari muloyim kulib turibdi. Ko‘nglim bir qalqib ketdi. Kimsan akam shunchalik kelishgan yigitligini endi payqaganimga o‘zim hayron qoldim. (79-bet)

Ko‘nglim bir qalqib ketdi - gap shaklidagi ibora.

c) *Ot + ravish + ot + fe‘l komponentli fe‘l frazema.*

PODADAN OLDIN CHANG KO‘TARMOQ – hali biror voqea-hodisa sodir bo‘lmasdan turib, unga oldindan shov-shuv ko‘tarish yoki keraksiz xavotirga tushish.

Oyim qorong‘i tushganda keldi. Tog‘am ham voyenkomatga yugurmoqda ekan, Ra‘no yangam qo‘ymabdi. Oyim tog‘amni uzib-uzib olibdi. “Podadan oldin chang ko‘tarma, g‘unchaday xotiningni tashlab urish qilishni kim qo‘yibdi senga”, – debdi. (91-bet)

Podadan oldin chang ko‘tarmoq – gap shaklidagi ibora.

d) *Ot + ot + fe‘l + fe‘l komponentli fe‘l frazema.*

ITDAY DUMINI QISIB QOLMOQ – odamning qo‘rqib yoki uyalib, jur‘atsiz bo‘lib qolganini bildiradi.

So‘poq iljayib ko‘zimga qaradi-yu, g‘azabdan titrab ketganimni ko‘rib ovozi o‘chdi. “Ahmoq! Hozir o‘z huzurini o‘ylaydigan zamonmi? Urish ketyapti, xunasa!” Vajohatimni ko‘rib, itday dumini qisib qoldi. Choyini yangilash bahonasida uydan chiqib ketdi. (237-bet)

Itday dumini qisib qoldi gap shaklidagi ibora.

e) *Ot + ot + fe‘l + ot komponentli ot frazema:*

OSMONDAGI QUSHNI BEJAYDIGAN CHEVAR – juda mohir, usta, qo‘li gul odam.

Xolposh xola o‘z qadrini biladi. Butun No‘g‘ayqo‘rg‘onda “osmondagi qushni bejaydigan chevar” nomi bor. Ammo hamma ham ko‘ylak tikavermaydi. (67-bet)

Osmondagi qushni bejaydigan chevar – so‘z birikmasi shaklidagi ibora.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tilning muhim birliklaridan biri bo‘lib, tilning boyligini, jozibadorligini, til egasining dunyoqarashi va ma‘naviyatini ko‘rsatadi. Ular boshqa til birliklaridan barqaror tuzilishi va yaxlit ma‘nosi bilan ajralib turadi. Maqolada frazemalarning leksik-grammatik tuzilishi haqida qisqacha tahlil berildi. Shuningdek, O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” asarida o‘zbek tilining imkoniyatlarini ochib bera olgani, so‘zning qudratini ko‘rsatib bera olganini iboralaridan ustalik bilan foydalanganlarida ko‘rishimiz mumkin. Frazeologizmlar badiiy nutqning ta’sirchanligini oshiradi va takrorini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoshimov O‘. “Ikki eshik orasi”. “Adabiyot uchqunlari”. Toshkent, 2018.
2. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/3602/5b02671fd19eb.pdf>.
3. Safarboyeva Y. O. Ajiniyoz Nukus DPI doktoranti. Zoonim komponentli frazemalarning grammatik qurilishi.
4. Nuriddinova N. Sh. “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili” kafedrasida o‘qituvchisi. Frazeologik iboralar va ularning semantik grammatik tuzilishi. Pedagogical international research journal www.pedagoglar.uz volume-2, issue-1, january–2022 108.
5. Musurmankulova Sh. Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi O‘zbek va turk tillaridagi frazemalarning struktur-grammatik tahlili e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com. 2024-yil 18-son.

